

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4

**“YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TISHDA INNOVATSIYALARNI
KENG JORIY QILISH VA BARQAROR IQTISODIYOTNI
INSTITUTSIONAL TARAQQIY ETTIRISH DOLZARBLIGI**

**INSTITUTIONAL DEVELOPMENT OF A SUSTAINABLE
ECONOMY AND WIDE IMPLEMENTATION OF INNOVATIONS
DURING THE TRANSITION TO A GREEN ECONOMY**

**ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ УСТОЙЧИВОЙ
ЭКОНОМИКИ И ШИРОКОЕ ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИЙ ПРИ
ПЕРЕХОДЕ К “ЗЕЛЕННОЙ” ЭКОНОМИКЕ**

Onlayin xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2024-yil 20-may



MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

I shu'ba

IJTIMOIIY-IQTISODIY BARQAROR RIVOJLANISH
MAQSADLARIGA ERISHISH UCHUN “YASHIL” IQTISODIYOTGA
JADAL O‘TISH

Section I

ACCELERATED TRANSITION TO A GREEN ECONOMY TO
ACHIEVE SOCIO-ECONOMIC SUSTAINABLE DEVELOPMENT
GOALS

I секция

УСКОРЕННЫЙ ПЕРЕХОД К “ЗЕЛеноЙ” ЭКОНОМИКЕ ДЛЯ
ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО
УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ





O'ZBEKISTONDA CHAKANA SAVDO KORXONALARINI RIVOJLANISHI VA INNOVATSION FAOLIYATI

Karimov Baxrom Ilxomjonovich

TDIU tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida chakana savdoning rivojlanish tendensiyalari statistik tahlil qilingan. Chakana savdoni innovatsion faoliyatidagi asosiy muammolar aniqlanib, marketing innovatsiyalaridan foydalanish yo'nalishlari belgilab berilgan.

Kalit so'zlar: savdo, chakana savdo, ulgurji savdo, innovatsiya, marketing, chakana savdo aylanmasi.

Abstract: In this article, the development trends of retail trade in the Republic of Uzbekistan are statistically analyzed. The main problems in the innovative activities of retail trade are identified and the directions of using marketing innovations are determined.

Key words: trade, retail trade, wholesale trade, innovation, marketing, retail turnover.

Аннотация: В данной статье статистически анализируются тенденции развития розничной торговли в Республике Узбекистан. Выявлены основные проблемы инновационной деятельности розничной торговли и определены направления использования маркетинговых инноваций.

Ключевые слова: торговля, розничная торговля, оптовая торговля, инновации, маркетинг, розничный товарооборот.


Mustaqillik yillarida O'zbekistonda savdoning butunlay yangi shakli, ya'ni xususiy savdo vujudga kelib, savdoning mulkiy shakllari butunlay yangilandi, zamonaviy nodavlat sektor shakllandi. Savdoning vertikal boshqaruv tizimi butunlay barham topdi. Baholar erkinlashtirildi. Xo'jalik aloqalari bozor iqtisodiyotiga moslashtirildi. Savdoni rivojlantirish borasida O'zbekiston Respublikasida ko'plab islohotlar amalga oshirildi. So'nggi islohotlar sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 30.10.2018-yildagi "Tovar bozorlarida savdoni yanada erkinlashtirish va raqobatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni¹ qabul qilindi. Unda savdo sohasini rivojlantirish, savdo mexanizmlarini yanada takomillashtirish, tovarlar bozorida sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish, korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida bir qator vazifalar belgilab berildi.

Biroq, Respublikada yillar davomida chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida raqobat muhitining izchil rivojlanmaganligi innovatsiyalardan foydalanish imkoniyatlarini cheklab qo'yish holatlari kuzatilgan. Ushbu holatlardan kelib O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha chakana savdoni rivojlantirish tendensiyalarini baholash orqali strategik qarorlar qabul qilish bo'yicha yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mita tomonidan ulgurji va chakana savdo tovarlari nomenklaturasi asosida hududiy jihatdan savdo statistikasi yuritiladi. 2022-yil holati O'zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga chakana savdo aylanmasining hajmi 7593,31 ming so'mni tashkil etgan (1-rasm).


Qiymat jihatidan yuqori o'sish kuzatilsa-da, 2000-2022-yillar davomida o'rtacha yillik o'sish surati 9,1 foizni tashkil etgan. 2017-yildan boshlab, aholi jon boshiga chakana savdo aylanmasining aholi jon boshiga oldingi yillarga qaraganda kamayish kuzatilgan. Mazkur holat 2017-yildan boshlab valyuta konvertatsiyasining erkinlashuvi natijasida ro'y bergan. O'sish suratining eng musbat quyi darajasi 3 foizni tashkil etib, mazkur holat 2003-yil hamda 2020-yilda kuzatilgan. 2003-yilda kuzatilgan past yillik o'sish darajasi O'zbekistonda matlubot kooperatsiyasining tugatilishi va transformatsiyalashuv jarayonlari bilan bog'liqdir. 2020-yilda kuzatilgan pasayish esa Covid-19 pandemiyasi oqibatlaridir. Aholi jon boshiga chakana savdo aylanmasining o'sish suratlari so'ngi yillarda yuqori natijalarni qayd etgan.

1 Savdoni erkinlashtirish 2 bosqichda amalga oshiriladi norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/savdoni_...



1-rasm: O'zbekiston respublikasida aholi jon boshiga chakana savdo aylanmasi va o'sish suratlari²

Ma'lumki, chakana savdo aylanmasining yuqori o'sishi aholi daromadlari darajasi bilan bog'liqdir. O'zbekiston respublikasida aholi jon boshiga umumiy daromadlarining 2000-2022-yillarda qiymat jihatidan yuqori o'sish tendensiyalari kuzatilgan bo'lsa-da, oldingi yillarga nisbatan o'sish tempining kuzatilayotgan yillarda kamayishini kuzatish mumkin (2-rasm).



2-rasm: O'zbekiston respublikasida aholi jon boshiga umumiy daromadlari va yillik o'sish suratlari³

2023-yilda aholi jon boshiga real umumiy daromadlari 20015,9 ming so'mni tashkil etgan. Aholi daromadlarning yillik o'rtacha o'sishi 25,5 foizni tashkil etgan. So'ngi 10 yildagi eng yuqori o'sish 2018-yilda kuzatilgan. 2020-yilda Soved-19 pandemiya sababli pasayish kuzatilgan bo'lsa-da 2021-yildagi o'sish 22,7 foizni tashkil etgan.

2000-2022-yillar davomida respublika aholi jon boshiga daromadlar tarkibida aholi jon boshiga chakana savdo aylanmasining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich 2000-yilda kuzatilgan bo'lib, aholi o'zining daromadlarini qariyb 75,2 foizini iste'mol tovarlari sotib olish uchun ishlatgan. Eng past ko'rsatkich esa 2011-yilda kuzatilgan bo'ldi, aholi o'zining umumiy daromadlarining qariyb 33,2 foizini chakana savdoda iste'mol tovarlari

² O'zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan. 2000-2009-yillar uchun pul daromadlari, 2010- yildan umumiy daromadlar ko'rsatilgan, 2010- yildan aniqlik kiritilgan ma'lumotlar



uchun foydalangan. So'ngi 5 yillik natijalar esa 37-42 foiz darajalarda bo'lib, pandemiyadan keyingi vaqtlarda iste'mol tovarlariga qilingan xarajatlarning oshib umumiy daromadlardagi ulushi ko'payib borish tendensiyalari kuzatilgan.

Chakana savdo korxonalarining innovatsion faoliyati xam oshib borgan. O'zbekiston respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi tomonidan tasdiqlangan davlat statistika hisobotida yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot (tovar, xizmat) yoki jarayonni, marketingning yangi uslubini, ish amaliyotida, ish joylarini tashkil qilishda yoki tashqi aloqalarda yangi tashkiliy uslubni iste'molga kiritish kabi ko'rsatkichlar bo'yicha korxonalardan statistik xisoboti yuritiladi. Mazkur hisobot natijalariga ko'ra O'zbekiston Respublikasidagi jami chakana savdo korxonalari tomonidan 2013-2022-yillarda jami 1131 innovatsiya amalga oshirilgan bo'lib, yillar davomida amalga oshirilgan innovatsiyalar soni 1-jadvalda aks etgan. 2019-yildan keyingi davrda Respublikadagi chakana savdo korxonalari tomonidan joriy qilingan innovatsion oldingi (2013-2018) yillarga nisbatan yuqori darajada ko'paygan. Chakana savdoda joriy qilingan tashkiliy innovatsiyalari jami innovatsiyalarda eng past ulushni egallab so'ngi o'n yil davomida 20 birlikni tashkil etgan. Agar joriy qilingan innovatsiyalarni chakana savdo obyektlari bilan taqqoslanganda bir foizga yetmagan savdo korxonalari tomonidan innovatsiyalar amalga oshirilganligi guvohi bo'lish mumkin.

1-jadval: O'zbekiston respublikasida faoliyati chakana savdo bo'lgan korxonalarning innovatsion faoliyati bo'yicha ma'lumot⁴

№		2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	Jami, birlik
1	Chakana savdoda joriy qilingan texnologik innovatsiyalar soni, birlik	47	54	63	73	60	23	78	191	333	209	1131
2	chakana savdoda joriy qilingan marketing innovatsiyalari soni, birlik	0	-	-	6	1	3	-	56	55	6	127
3	chakana savdoda joriy qilingan tashkiliy innovatsiyalar soni, birlik	3	-	3	1	1	1	5	3	3	-	20
	Jami, birlik	50	54	66	80	62	27	83	250	391	215	1278

Chakana savdoda joriy qilingan texnologik innovatsiyalar soni jami innovatsiyalarda asosiy ulushni egalangan. Biroq, pandemiyaning ta'sirida 2020-2021-yillarda marketing innovatsiyalari ham nisbatan ko'paygan.

Chakana savdo korxonalari tomonidan moliyalashtirish manbalari bo'yicha innovatsiyalarga xarajatlar miqdorining ham 2013-2022-yillarda o'sishi kuzatilgan. Jumladan, 2013-yilda 8093,2 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 70238,7 mln so'mni tashkil etgan. Mos ravishda chakana savdoda texnologik innovatsiyalarga xarajatlar 2013-yilda 8032,2 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 69873,4 mln so'm bo'lgan. Chakana savdo korxonalari tomonidan amalga oshirilayotgan innovatsiyalarga qilingan xarajatlarning umumiy miqdorini korxonalarining umumiy daromadlari bilan taqqoslanganda bir foizga yetmagan miqdorni tashkil etadi.

E'tiborlisi chakana savdo korxonalari tomonidan marketing innovatsiyalarga Statistika agentligi tomonidan 2013-2016-yilgacha bo'lgan davrda innovatsiyalar bo'yicha xarajatlar birorta korxona tomonidan amalga oshirilganligini ko'rish mumkin. Chakana savdoda marketing innovatsiyalarini amalga oshirish 2017-yildan keyingi davrlarga to'g'ri kelgan. Ta'kidlash joizki, ichki savdo tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish mamlakat siyosatining strategik yo'nalishi hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, savdo tarmoqlarini innovatsion rivojlantirishning tanlangan yo'nalishi doirasida chakana savdo sohasini innovatsion rivojlantirish bo'yicha o'ziga xos siyosat ishlab chiqilishi va aniq maqsadli strategiyasini ham ishlab chiqish zarur. Chakana savdoni innovatsion rivojlantirish strategiyasini shakllantirish murakkab jarayon hisoblanib, uni amalga oshirish ilmiy asoslangan yondashuvni talab qiladi.

Amalga oshirilgan tahlillardan ma'lum bo'ladiki respublika doirasida chakana savdo korxonalarining innovatsiyalar salohiyati yuqori emasligidan dalolat beradi. Biroq, so'ngi yillarda yirik supermarketlar tarmoqlari samarali rivojlanmoqda. Mamlakatda supermarketlar tarmoqlarida mijozlar uchun xalqaro chakana savdo normalariga mos bo'lgan barcha xizmatlar yo'lga qo'yilgan va zamonaviy formatdagi shakllariga o'tish tendensiyalari kuzatilmoqda. Jumladan, 2022-yil holati bo'yicha top-20 savdo subyektlari orasida "Anglesey Food" MCHJ ("Korzinka" supermarketlar tarmog'i), "Havas Food" MCHJ QK (Havas supermarketlar tarmog'i), "Darvoza Savdo" MCHJ (Makro supermarketlar tarmog'i), "Urban Ritail" MCHJ (Baraka Market supermarketlar tarmog'i), "Magnum Retail" MCHJ XK (Magnum supermarketlar tarmog'i), "New Retail" MCHJ (Bi1 super-

⁴ O'zbekiston respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan



marketlar tarmog'i), "Majid Al Futtaim Hypermakets" MCHJ (Carrefour supermarketlar tarmog'i), "Sharqona Yagona Savdo" MCHJ (Asia.uz supermarketlar tarmog'i) kabilar chakana savdo bozorida yetakchilik qilayotgan tarmoqlardir.

Yuqoridagilardan ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida chakana xizmatlar bozorida katta o'zgarishlar yuz bermoqda. Chakana xizmatlar bozorida yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlar yangi imkoniyatlar va istiqbollarni belgilab beradi. Zamonaviy rivojlanish nafaqat aholi uchun qulay imkoniyatlar va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlaydi, balki xorijiy investorlarni mamlakatning ushbu sektoriga qiziqishlarini oshirishga olib keladi. Chakana xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishni o'rganishdagi asosiy vazifalar uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va baholashdan iborat. Shunga ko'ra chakana xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirish omillari batafsil ko'rib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Soliyev. Marketing (bozorshunoslik). Monografiya. ART-FLEKS. 2008-yil. 18-bet.
2. Ergashxodjayeva Sh.D. Innovatsion marketing. Darslik. –T.: TDIU, Iqtisodiyot, 2014. –178 bet.
3. Qaxxorov A.J. o'zbekiston avtomobil transporti tizimida innovatsion marketing faoliyatini takomillashtirish. 08.00.11 – Marketing (iqtisodiyot fanlari). Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. TDIU, 2018 y. 11-bet.
4. Akramov T.A. Avtomobil sanoati korxonalarida marketing strategiyalarini takomillashtirish. 08.00.11 – Marketing (iqtisodiyot fanlari). Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi dissertatsiyasi. Toshkent. TDIU, 2018-y. 25-bet
5. Sharipov K., Shokamolov Sh. Avtosanoat korxonalarida innovatsion marketing tizimidan foydalanish imkoniyatlari // Economics and education. – 2020. – №. 5. – S. 6-12.
6. Maraimova U. I. Innovatsion marketing elementlarini kichik biznes eksport amaliyotida joriy etish bo'yicha nazariy va metodologik yondashuvlar //International scientific conferences with higher educational institutions. – 2022. – T. 1. – №. 25.10. – S. 454-462.
7. Levitt T. Growth and profits through planned marketing innovation //Journal of Marketing. – 1960. – T. 24. – №. 4. – C. 1-8.



MUNDARIJA

I shu'ba

IJTIMOY-IQTISODIY BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISH UCHUN "YASHIL" IQTISODIYOTGA JADAL O'TISH

Section I

ACCELERATED TRANSITION TO A GREEN ECONOMY TO ACHIEVE SOCIO-ECONOMIC SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS

I секция

УСКОРЕННЫЙ ПЕРЕХОД К "ЗЕЛЕННОЙ" ЭКОНОМИКЕ ДЛЯ ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

The Development of Marketing Innovations in Retail Trade	4
Shakhriyor Sadullaev, Sadullayeva Shahrizoda	
Направления совершенствования стратегии компании для успешной организации IPO	9
Шахзод Сайдуллаев	
"Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish	11
Abdurahmonov Xolboy To'xtayevich	
Тўқимачилик саноати кластерлари инновацион фаолиятининг барқарор ривожланиш муаммолари ва ечимлари	14
Икрамов Мақсад Муратович	
O'zbekistonda chakana savdo korxonalarini rivojlanishi va innovatsion faoliyati	20
Karimov Baxrom Ilxomjonovich	
Unveiling the Dynamics of Agglomeration Economies in Sustainable Development	24
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich	
Kimyo tolalari asosida to'qimachilik mahsulotlari bozorini diversifikatsiyalash usullari	28
Raximov Furqat Jalolovich	

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.